

Mustaqillik Yillarida Samarqand Viloyatida Oziq – Ovqat Xavfsizligini Ta'minlashdagi Islohotlar Va Ularning Natijalari.

Z. Axmedova –magistrant

R. Xoliqulova – Toshkent Bank kolleji o'qituvchisi.

Mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda fermer –dehqon xo'jaliklarining alohida o'rni bor. Chunki fermer xo'jaliklari qishloq –xo'jaligining asosiy ustunidir. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi va kelajagi aynan fermerlik harakatining rivojlanishiga bog'liq. Buni davrning o'zi isbotlab turibdi.

Mamlakatimiz aholisini oziq- ovqat mahsulotlari, xususan, don va don mahsulotlari bilan ta'minlashda Samarqand viloyatida ham ko'plab choralar ko'rilmogda.

Tarixdan bizga ma'lumki, o'lkamizda bug'doy yetishtirish bilan ajdodlarimiz bundan uch ming yil ilgari ham shug'ullangan. Ma'lumotlarga qaraganda dastlab bug'doy Eronda bundan olti yarim ming yil avval ekilganligi arxeologik manbalarda ko'rsatib o'tilgan. Qadimda Xorazmda bug'doy yetishtirgan, chunki bu o'lkada sun'iy sug'orish tizimi eneolit davridan boshlangan. Jayxun madaniyatidan topilgan bug'doy va arpa navlarining yoshi yetti ming yil ilgari, neolit davriga oidligi olimlar tomonidan isbotlangan.¹

Respublikamizda fermer xo'jaliklarini mustaqil xo'jalik yuritish subyekti sifatida shakllantirish jarayoni 1991-yilning oxirlarida boshlangan edi. Dastlabki tashkil etilgan fermer xo'jaliklari asosan davlat yer fondi , zaxiradagi yerlar, yangi sug'oriladigan yerlar yoki kam rentablilik yerlaridan shakllantirilgan edi.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarida mamlakatimiz rahbariyatining asosiy e'tibori don mustaqilligiga qaratilgan edi, chunki sobiq sho'rolar davrida respublika aholisini don va un mahsulotlari bilan ta'minlash og'ir ahvolda bo'lib, uning aksariyati chetdan olib kelinar, mamlakatning ichki hayotida asosiy e'tibor paxtachilikka qaratilgan edi.

Respublikaning don mustaqilligini erishishning asosiy ijodkori O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov edilar. U kishining olib brogan oqilona siyosati natijasida mamlakatimiz 1996- yilda don mustaqilligiga erishdi. Shu yili 1.2 mln gektar sug'oriladigan yerlar donli ekinlarga ajratildi, uning natijasida fermerlarning davlatga 5.3 mln tonna don mahsulotlari yetishtirdi. Bu hol mamlakatimizni chetga don mahsulotlarini eksport qilishi uchun poydevor yaratdi.

¹ 183 Agrar sohani rivojlantirish istiqbollari. Respublika konfrensiya materiallari to'plami. Samarqand 2006, 57-bet

Bu holni Samarqand viloyati misolida olsak, 1997 yil boshlarida viloyatda 41.731 gektar eng hosildor yerlar dehqon- fermer xo'jaliklariga taqsimlab berildi. Bu viloyat bo'yicha qishloq xo'jaligida foydalanadigan ekin maydonining 10 % ini tashkil qiladi. Bu yerlarda faoliyat ko'rsatayotgan dehqon fermer – xo'jaliklarining 2229 tasi mustaqil xo'jalik yuritdi. Ular ushbu yilda 19.1 ming tonna g'alla yetishtirdilar. Boshqa sohalarning ham o'sish jarayonlari kuzatildi.²

G'allachilik sohasida viloyatdagi Payariq, Tayloq, Samarqand tumanlardagi tajriba maktablari tomonidan olib borilayotgan ishlar diqqatga sazovordir. Viloyatimiz aholisini don mahsulotlari bilan ta'minlashda Tayloq tumani hissasi katta. Tumanda 1994 yildan beri dunyoning 44 davlatidan keltirigan yumshoq bug'doyning 214 ta navi ekib kelinmoqda va bu navi ustida ilmiy izlanishlar olib borimoqda. Bu yangi nav asosan "Mirzo Ulug'bek" nomli jamoa xo'jaligida yetishtirilmoqda. Tumanda boshqoli don mahsulotlarini yig'ishtirib olish maqsadida doimiy tashkiliy shtab tuzilib, bu shtab 4ta hududiy guruhda "Istiqlol", "Ulug'bek", "Turkiston", "Mustaqillik" guruhlarida ish olib borishadi. Uning oqibatida hosildorlik o'rtacha 38.5 sentnerdan oshgan. Hatto "Istiqlol" guruhida o'rtacha hosildorlik 50 sentnerga yoki tumandagi "Shodlik" fermer xo'jaligi boshlig'i Ergash Ro'ziboyev har gektaridan 62 sentnerdan, jami 31 tonna g'alla yetishtirilgan.³

Yana bir misol, g'alla urug'chilik bo'yicha Samarqand tumani tajriba maktabi ham bu sohada ijobiy ishlarni amalga oshirmoqda. Bu yerda yaratilgan "Ulug'bek-600" navi o'zining tez pisharligi, hosildorligi, turli kasalliklarga chidamliligi bilan g'allachiligimizga ma'qul bo'ldi. Bu nav Samarqand sharoitida yaxshi natija bermoqda.

2002 yilda viloyat g'allakorlari 548 ming tonna g'alla yetishtirib, shundan 281 ming tonnasi davlatga sotildi. Shartnomaga belgilanganidan ortiqchasi 250 ming tonnadan ziyodi ishchilarga tarqatildi.

G'allachilikda viloyatda 2000- yilda 4.9 milliard so'm, 2001 –yilda 7.9 milliard so'm daromad olingan bo'lsa, 2002 yilda bu ko'rsatgich 16 milliard so'mni tashkil etdi.⁴

Viloyatda 2002 yil 8573 ta, 2003 yil 9042 ta, 2004 yil 9997 ta fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatgach bo'lsa, ularning g'allachilikdagi ulushi yuqoridagi yillar hisobida 17 foiz, 27.6 foiz, 45.3 foizni tashkil etdi. Bundan shu narsa ma'lumki, viloyat fermer xo'jaliklarida mulkchilik shakli o'zgargandan so'ng dehqonlarning yerga bo'lgan munosabati tubdan o'zgargan, ularning daromad va manfaatdorligi yildan yilga oshib borgan. Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki yetishtirilayotgan g'allaning 80-85 % viloyat fermerlari tomonidan tayyorlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, istiqbol bergan eng ulug' ne'matlatdan biri shubhasiz, el- yurt uchun rizq –ro'z yaratuvchi dehqon yerning haqiqiy sohibiga aylangani, mulkdor bo'lganidadir. Natijada fermerlik harakati jamiyatimiz taraqqiyotining tayanch ustunlaridan biriga aylandi. Oqibatda orzusi ushali yer olgan, ishlab chiqarish vositalariga egalik qilgan fermerlar qishloqlarimizdagi ko'plab muammolarga barham beruvchi sahiy mulkdorlarga aylanib bormoqda.

² Zarafshon gazetasi. 2011 yil, 28- yanvar soni

³ Zarafshon. 1997 yil 5-mart. №37 (19. 635)

⁴ Zarafshon 2011 yil 18 –noyabr.

